



O‘ZBEKISTON – QOZOG‘ISTON: STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARIDA YANGI BOSQICH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qozog‘iston Respublikasi
Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev davlat tashrifi bilan
mamlakatimizda bo‘lib turibdi.



Ko‘ksaroy qarorgohida 15-noyabr kuni ikki davlat yetakchilari o‘rtasida tor doiradagi muzokaralar bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston va Qozog‘iston strategik sheriklar hamda taraqqiyot yo‘lidan birgalikda borayotgan ishonchli ittifoqchilardir. Bu ikki davlat rahbarlarining mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta‘minlash, uzoq muddatli sheriklikni rivojlantirish borasidagi qarashlari o‘zaro mos kelayotganini ko‘rsatadi.

Transport-kommunikatsiya yo‘laklarini shakllantirish, energetik hamkorlikni chuqurlashtirish, ekologiya masalalarida hamjihat pozitsiya shakllanishi munosabatlarning yangi bosqichga ko‘tarilganining amaliy isbotidir. Bu yo‘nalishlarda qo‘lga kiritilayotgan natijalar nafaqat ikki tomonlama manfaatni, balki butun mintaq uchun strategik ahamiyatni ifodalaydi. Iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlik ham izchil o‘smoqda. Ikki tomonlama savdo hajmini oshirish bo‘yicha qo‘yilgan maqsadlar amaliy qadamlar bilan mustahkamlanmoqda.

Ushbu davlat tashrifi O‘zbekiston — Qozog‘iston strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari tarixida yangi bosqichni boshlab berishi ta‘kidlandi.

Tashrifga tayyorgarlik doirasida Toshkentda Hukumatlararo komissiya yig‘ilishi va biznes forumi, Qozog‘iston tibbiyoti kunlari, qozoq filmlari namoyishi, Ostona kunlari va bir qator madaniy tadbirlar muvaffaqiyatli o‘tkazilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Yilning o‘tgan davri mobaynida tovar ayirboshlash sezilarli darajada o‘tdi. Yuk tashish hajmi orqmoqda, shaharlar o‘rtasida haftasiga 40 dan ortiq aviaqatnovlar amalga oshirilmoqda.

So‘nggi yillarda 6,5 mingta qo‘shma korxona tashkil etildi va ustuvor tarmoqlarda yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Sanoat

kooperatsiyasini rivojlantirish uchun 8 milliard dollardan ortiq qiymatdagi loyihalar portfeli tayyorlandi. Ushbu loyihalarni amalga oshirish uchun qo‘shma investitsiya platformasini ishga tushirish taklif qilindi.

Muzokaralar davomida energetika, transport, kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi va suv xo‘jaligi, atrof-muhitni muhofaza qilish, axborot texnologiyalari va boshqa muhim sohalarida o‘zaro manfaatli sheriklikni kengaytirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Hududlararo aloqalarni yanada kengaytirish muhimligi ta‘kidlandi. Ikki mamlakat hududlari rahbarlarining birinchi Kengashini 2026-yilda Qozog‘istonda o‘tkazish to‘g‘risida kelishuvga erishildi.

Davlat rahbarlari mintaqaviy va xalqaro masalalar bo‘yicha ham fikr almashdilar.

Shundan so‘ng Ko‘ksaroy qarorgohida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev raisligida Oliy davlatlararo kengashning ikkinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari 2024-yilda ta‘sis etilgan Oliy davlatlararo kengash formati o‘zining dolzarbligi va samaradorligini ko‘rsatganini ta‘kidladi.

— Munosabatlarimiz bugungi kunda eng yuqori — strategik sheriklik va ittifoqchilik darajasiga ko‘tarildi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Tomonlar hamkorlikning yangi yo‘nalishlarini, ikki tomonlama salohiyatdan foydalanish yo‘llarini batafsil muhokama qildilar va O‘zbekiston — Qozog‘iston sherikligini kengaytirishga sezilarli turki beradigan bir qator qarorlar qabul qildilar.

O‘zaro savdoning barqaror o‘sishini ta‘minlash, uning tarkibini diversifikatsiya qilish va biznes uchun qulay sharoitlar yaratishga alohida e‘tibor qaratildi.

Yil boshidan buyon tovar ayirboshlash 4 milliard dollarga yetgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Bu ko‘rsatkichni 2030-yilgacha 10 milliardga yetkazish maqsad qilingan.

Buning uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan, savdo va investitsiya bitimlarining salmoqli to‘plami shakllantirilgan, “O‘zKazTreyd” kompaniyasi ta‘sis etilgan, ishbilarmon doiralr o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamkorlik mexanizmlari yo‘lga qo‘yilgan.

Mamlakatimiz yetakchisi sanoat kooperatsiyasi sohasida erishilgan katta muvaffaqiyatlarni qayd etdi.

Tashrif doirasida “Markaziy Osiyo” xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazi hamda 1,3 milliard dollarlik qator muhim loyihalar ishga tushiriladi. Bundan tashqari, umumiy qiymati 8 milliard dollardan ziyod bo‘lgan, jumladan, kimyo, geologiya, infratuzilma, logistika, agrosanoat va ko‘plab boshqa sohalaridagi loyihalarni o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli Sanoat kooperatsiyasi dasturi tayyorlandi.

Transport va logistika sohasida tizimli sheriklik ustuvor yo‘nalish sifatida qayd etildi. Yangi transport yo‘laklarini, shu jumladan, “Uchquduq — Qizilo‘rda” yo‘nalishini yaratish, Aqtau, Quriq va Xorgos portlarida yuk tashishni rag‘batlantirish bo‘yicha birgalikda ishlash zarurligi qayd etildi.

Energiya resurslarini tashish va qayta ishlash, energiyani tejash, “yashil” texnologiyalar hamda axborot texnologiyalarini joriy qilish sohalarida o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishga tayyorlik bildirildi.

Suv-ekologiya sohasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha ta‘sirchan choralar ko‘riladi. Tomonlar tashrif doirasida Transchegaraviy suv obyektlarini birgalikda boshqarish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi bitim imzolashini olqishladilar.

[Davomi 2-betda](#)

OZARBAYJON BILAN AMALIY HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH MUHIMLIGI QAYD ETILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
15-noyabr kuni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi
Maslahat uchrashuvida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan
Ozərbayjon Respublikasi Prezidenti İlhom Aliyev bilan uchrashuv o‘tkazdi.



Suhbat avvalida Ilhom Aliyev O‘zbekiston yetakchisiga Maslahat uchrashuvida ishtirok etish taklifi uchun minnatdorlik bildirdi. Davlatimiz rahbari, o‘z navbatida, qardosh Ozarbayjon Prezidenti va xalqini joriy yil 8-noyabr kuni nishonlangan G‘alabaning besh yilligi bilan samimiy tabrikladi.

O‘zbekiston Prezidentining shu yil iyul oyida Ozarbayjonga davlat tashrifi davomida

erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston — Ozarbayjon strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari yanada rivojlantirish hamda mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Barcha darajalarda samarali almashinuvlar davom etmoqda. Joriy yil boshidan tovar ayirboshlash hajmi 15 foizga

oshdi. Avtomobilsozlik, energetika, turizm va boshqa tarmoqlarda sanoat kooperatsiyasi bo‘yicha qo‘shma loyihalar faol pallaga kirgan.

Yetakchilar bo‘ljak oliy darajadagi uchrashuv va tadbirlar rejasini ham ko‘rib chiqdilar.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON VA QIRG‘IZISTON PREZIDENTLARINING UCHRASHUVI BO‘LIB O‘TDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari
rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Qirg‘iz
Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov bilan uchrashdi.

Oliy darajadagi kelishuvlarning ijrosi, birinchi navbatda, tovar ayirboshlashni ko‘paytirish, sanoat, transport, energetika va infratuzilma sohalaridagi muhim kooperatsiya loyihalarini amalga

oshirishni jadallashtirish choralari ko‘rib chiqildi. Faol hududlararo aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuvlarni davom ettirish muhimligi ta‘kidlandi.

Prezidentlar mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

O‘ZA

ITTIFOQCHILIK ALOQALARINI MUSTAHKAMLASH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

Ko‘ksaroy qarorgohida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat
uchrashuvida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Tojikiston Respublikasi Prezidenti
Emomali Rahmon bilan uchrashdi.

Yetakchilar O‘zbekiston — Tojikiston do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari yanada kengaytirishning dolzarb masalalarini muhokama qildilar.

O‘zaro savdoni ko‘paytirish bo‘yicha

muvofiglashtirilgan chora-tadbirlar ko‘rish, sanoat, energetika, qishloq xo‘jaligi hamda boshqa ustuvor sohalarida kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga alohida e‘tibor qaratildi.

Faol madaniy-gumanitar almashinuvlar

va samarali hududlararo aloqalarni davom ettirish muhimligi ta‘kidlandi.

Shuningdek, Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash yuzasidan fikr almashildi.

O‘ZA

TURKMANISTON PREZIDENTI DAVLAT TASHRIFI BILAN O‘ZBEKISTONDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Turkmaniston Prezidenti Serdar
Berdimuhamedov 16-17-noyabr kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo‘ladi.

Oliy darajadagi muzokaralar kun tartibiga O‘zbekiston — Turkmaniston strategik sheriklik munosabatlari yanada rivojlantirish va mustahkamlash, ko‘p qirrali hamkorlikni, birinchi navbatda, siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport, suv-energetika, madaniy va gumanitar sohalarida kengaytirish masalalari kiritilgan.

Tashrif doirasida davlat rahbarlari “Shovot-Toshovuz” chegaraoaldi savdo zonasining ochilish marosimida ishtirok etishadi.

O‘zbekiston va Turkmaniston yetakchilari xalqaro hamda mintaqaviy masalalar yuzasidan fikr almashadilar.

Sammit yakunida Qo‘shma bayonot qabul

qilinishi va ikki tomonlama hujjatlar to‘plami imzolashini rejalashtirilgan.

Turkmaniston Prezidenti, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvida ishtirok etadi.

O‘ZA

UMUMIY MADANIY VA MA’NAVIY MEROS MINTAQA MAMLAKATLARINING YANADA YAQINLASHISHIGA XIZMAT QILADI

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvida ishtirok etish uchun
mamlakatimizga kelgan mintaq mamlakatlari va Ozarbayjon Prezidentlari O‘zbekiston Prezidenti bilan birgalikda
Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurdilar.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan markaz islom sivilizatsiyasining bebaho merosini asrab-avaylash va targ‘ib qilishga bag‘ishlangan noyob manbalar, ilmiy tadqiqot va ta‘lim yo‘nalishlarini bir joyga jamlagan tariximizdagi ilk majmua bo‘ldi.

Majmua milliy me‘moriy an‘analar va zamonaviy bezaklar uyg‘unligida barpo etildi. Inshootning to‘rt tomonida balandligi 34 metrli peshtoqlar, o‘rta qismida esa 65 metrli milliy uslubdagi gumbaz qad rostlagan.

Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon, Qirg‘iziston

Prezidenti Sadir Japarov, Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev Prezident Shavkat Mirziyoyev hamrohligida musulmon olamining bebaho ma‘naviy durdonasi sanalgan Usmon Mus‘hafi saqlanayotgan Qur‘oni karim zaliga tashrif buyurdilar.

[Davomi 2-betda](#)



DO‘STLIK, TINCHLIK VA BARQARORLIKNI ULUG‘LOVCHI BIRLASHUV



Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

O‘zbekiston ko‘p millatli davlat. Hozirgi kunda yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari ahil-inoq yashab kelmoqda. Bu oddiy statistika emas, balki jamiyatimizdagi o‘zaro do‘stlik, ahillik, birdamlik ruhining raqamlardagi ifodasidir. Zero, har bir davlatning taraqqiyot yo‘li va jamiyatdagi islohotlarga baho berishda millatlararo munosabatlar mustahkamligi, jamiyatdagi bag‘rikenglik muhiti nechog‘liq ta‘minlangani muhim mezon sifatida alohida e‘tiborga olinadi.

Mamlakatimizda esa bu tamoyillar tarixiy ildizlarga ega ekani bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ya‘ni e‘tiqodi, tili, dini yoki irqidan qat‘i nazar, barchaga birdek hurmat, xayrixohlik va muruvvat bilan munosabatda bo‘lish, inson qadriini ulug‘lash xalqimizning azaliy qadriyati hisoblanadi.

Yurtimizda bu qadriyatlarni asrash, jamiyatimizdagi tinchlik va barqarorlikning muhim omili bo‘lgan millatlararo munosabatlarni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanib, shu asosda izchil islohotlar amalga oshirilyapti. Zaminimizda qadimgi davrlardan buyon davom etib kelayotgan etnik xilma-xillik noyob ijtimoiy hodisa sifatida baholalanib, millatlar va elatlar, konfessiyalar o‘rtasidagi totuvlikni asrash, uni yanada mustahkamlashga e‘tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz bu borada jamiyatimizda erishilayotgan o‘ziga xos yutuqlar va ustuvor vazifalar xususida to‘xtalar ekan, “Bizning eng katta boyligimiz — O‘zbekistonni o‘zi uchun yagona Vatan deb biladigan ko‘p millatli buyuk xalqimizdir. Jonajon yurtimizda qaror topgan millatlararo do‘stlik va ahillikni — mana shunday bebaho xazinamizni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash barchamizning oliy burchimizdir”, deb alohida ta‘kidlagan edi.

Darhaqiqat, yangi O‘zbekistonda ajdodlar ma‘naviy merosiga sodiqlik asosida millatlar va konfessiyalararo totuvlik va o‘zaro bir-birini tushunish, yosh avlodni bag‘rikenglik, milliy va umumbashariy qadriyatlararga hurmat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada tegishli hujjatlar qabul qilinib, amaliy ishlar yil sayin kengaymoqda. Avvalo, umummilliy totuvlikning muhim yo‘nalishi sifatida O‘zbekistonda istiqomat qiladigan turli millat va elatlarning madaniyati, tili, urf-odatlari, qadriyat va an‘analarini saqlash hamda yosh avlodga yetkazish dolzarb masalalardan biri.

Bu yo‘nalishda ishlarni tizimli amalga oshirishda milliy madaniy merosni saqlashga qamrab olingan. Uslubiy barchasi hududning kelgusidagi rivojlanish bosqichi uchun strategik ahamiyatga ega. Kelajakka birgalikda qarash, hamkorlikni kengaytirish, integratsiyalashuvni chuqurlashtirish kabi g‘oyalari yangi Markaziy Osiyo davri kelayotgani haqidagi ta‘kidning juda to‘g‘ri va o‘rinli aytilganini tasdiqlaydi. Zotan, bu davrda mintaqa davlatlari uchun bir jihatdan muhim istiqbolalar ochilishi, ikkinchi tomondan esa amaliy vazifalar salmoqli ekaniga alohida e‘tibor qaratilgani bejiz emas.

Keyingi yillarda Markaziy Osiyodagi davlatlar orasida ishonch va ochiq muloqot muhiti shakllanishi mintaqaviy barqarorlik uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu ishonch faqat diplomatik salohiyat emas, balki

hamjihatlik, bag‘rikenglik muhiti yanada mustahkamlash maqsadida 2021-yildan buyon har yili 30-yul mamlakatimizda Xalqlar do‘stligi kuni sifatida keng nishonlanyapti.

16-noyabr — Xalqaro bag‘rikenglik kuni munosabati bilan bo‘lib o‘tgan turli tadbirlar jarayonida xalqlarimiz o‘rtasidagi bu hamkorlikning muhim qirralari yanada yaqqol ko‘zga tashlandi. Haftalik doirasida yurtimizning barcha hududlarida turli madaniy-ma‘rifiy tadbirlar, ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etildi. Tabiiyki, bunday tadbirlar, millatlararo totuvlik muhiti mustahkamlashga qaratilgan ezgu islohotlar samarasida jamiyatimizda bag‘rikenglik muhiti tobora mustahkamlanyapti. Ko‘p millatli xalqimiz bir jonu bir tan bo‘lib, kelajagi buyuk yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida yakdillik bilan hamdam bo‘lmoqda.

Dono xalqimiz aytganidek, birdamlik bor joyda ildamlik, rivojlanish bo‘lishi tabiiy. Buni bugun turli sohalarda erishilayotgan yutuqlar ham yaqqol ifoda etadi. Misol uchun, jamiyatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi izchil sa‘y-harakatlar tufayli oxirgi sakkiz yilda iqtisodiyotimizga 130 milliard dollar investitsiya kirib keldi, minglab yangi quvvatlar ishga tushirildi, millionlab doimiy ish o‘rinlari yaratildi. Xususiy sektorga keng yo‘l ochilib, har bir inson munosib mehnat qilishi uchun zarur sharoitlar yaratilishi natijasida jon boshiga daromad 3,5 ming dollarga yetmoqda.

“Inson qadri uchun” ezgu g‘oyasiga asoslangan islohotlar samarasida aholini ijtimoiy himoya qilish, kambag‘allikni kamaytirish, xalqimiz sog‘lom va uzoq umr kechirishi uchun qulay muhit yaratish borasida muhim natijalarga erishilyapti.

— Zamonaviy O‘zbekiston bugun eng barqaror, bag‘rikeng va madaniy xilma-xillikka ochiq davlat sifatida dunyoga o‘zini keng namoyon etmoqda, — deydi Ozarbayjon milliy madaniyat markazi rahbari Mobil Mamedov. — Ushbu muqaddas zaminda ko‘plab millat va xalq vakillari, 16 diniy konfessiya a‘zolari yagona oila kabi mehr-oqibat, o‘zaro hurmat va hamkorlik muhitida yashamoqda. Bu nafaqat ijtimoiy uyg‘unlik, balki Prezidentimiz rahbarligida amalga oshirilayotgan “Yangi O‘zbekiston — umumiy uyimiz” siyosatining yorqin natijasidir. Boshqa millat vakillari qatorida ozarbayjon diasporasi ham mamlakatimizning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida faol ishtirok etib, yangi O‘zbekiston qurilishiga samarali hissasini qo‘shmoqda. Ozarbayjon milliy madaniyat markazi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mita bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yuritib, o‘zbek

va ozarbayjon xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik va qardoshlik rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Markaz tashabbusi bilan muntazam ravishda madaniy tadbirlar, adabiy-badiiy kechalar, ko‘rgazmalar, ilmiy konferensiyalar va musiqiy dasturlar o‘tkazilmoqda. Bu tadbirlar xalqlarimiz



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!

o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va tinch-totuv yashashning eng zo‘lar namunasiga aylangan. O‘zbekistonning kelajagi ana shunday ekan an‘analar — do‘stlik, hamjihatlik va o‘zaro hurmat ustiga qurilayotgani jamiyatimizda erishilayotgan ulkan yutuqlarning muhim poydevori bo‘lmoqda.

Ildizlari tutash, tarixi va kelajagi mushtarak zamin

Turli millatlar o‘rtasidagi do‘stlik, hamkorlik rishtalari haqida gap borar ekan, bu vazifalarni



BIRDAMLIK — ISTIQBOLNING OYDIN YO‘LI

Prezidentimizning “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” sarlavhali maqolasini o‘qib, mintaqaviy xalqlari taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ygani yana bir karra his qildim.

Maqolada mintaqaviy hamkorlik, iqtisodiy integratsiya, inson kapitali va barqaror rivojlanish bilan bog‘liq juda ko‘plab masalalar qamrab olingan. Uslubiy barchasi hududning kelgusidagi rivojlanish bosqichi uchun strategik ahamiyatga ega. Kelajakka birgalikda qarash, hamkorlikni kengaytirish, integratsiyalashuvni chuqurlashtirish kabi g‘oyalari yangi Markaziy Osiyo davri kelayotgani haqidagi ta‘kidning juda to‘g‘ri va o‘rinli aytilganini tasdiqlaydi. Zotan, bu davrda mintaqa davlatlari uchun bir jihatdan muhim istiqbolalar ochilishi, ikkinchi tomondan esa amaliy vazifalar salmoqli ekaniga alohida e‘tibor qaratilgani bejiz emas.

Keyingi yillarda Markaziy Osiyodagi davlatlar orasida ishonch va ochiq muloqot muhiti shakllanishi mintaqaviy barqarorlik uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu ishonch faqat diplomatik salohiyat emas, balki

iqtisodiy aloqalar, savdo, transport yo‘laklari ham ta‘sir ko‘rsatadi. Ishlab chiqarish, eksport, import sohasidagi barqarorlikni yangi bosqichga olib chiqdi. Xususan, iqtisodiy hamkorlik va savdo yo‘nalishini olsak, O‘zbekistonning mintaqa davlatlari bilan tovar ayiribboshlash hajmi 2016-yildagi 2,4 milliard dollardan 2024-yilda 7,2 milliard dollarga o‘sd. Qo‘shma korxonalar soni esa 1800 dan oshgan. Bu iqtisodiy aloqalar kundan kunga rivojlanib borayotganidan dalolat. Prezidentimiz bu o‘sinishni “markaziy iqtisodiy integratsiyaning yaqqol natijasi” sifatida baholadi. Bu ko‘rsatkichlar millionlab ish o‘rinlarini yaratish va eksport salohiyatini oshirish bilan bog‘liq jarayonlarni qamrab olganini amalda ko‘rib turibmiz. Ayniqsa, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va chegara yo‘laklarini rivojlantirishga e‘tibor gumanitar aloqalar rivojida muhim ahamiyat

to‘laqlonli hal etish xalqimiz uchun nafaqat milliy, balki mintaqaviy xarakterga ega ekani bilan ham ajralib turadi. Zero, Markaziy Osiyo mintaqasi aholisi tarixi, o‘zligi, dini, qadriyatlari bir bo‘lgan qardosh va birodar xalqlardir. Shu ma‘noda, millatlararo totuvlik masalasida ko‘zlangan maqsadlarga erishish uchun yaqin qardoshlarimiz bo‘lgan qo‘shni davlatlar xalqlari bilan aloqalarimizni ham e‘tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi.

Sir emas, bundan o‘n yillar ilgari ildizi bir, rishtalari tutash bo‘lgan xalqlarimiz o‘rtasida o‘zaro munosabatlar maqnatarni emasdi. So‘nggi yillarda Prezidentimizning qat‘iy siyosiy irodasi bilan mintaqamizdagi qardosh davlatlar o‘rtasidagi do‘stona aloqalar yangi bosqichga ko‘tarilib, dunyo siyosatida “Markaziy Osiyo ruhi” degan ibora va voqelik paydo bo‘lgani barchamizning ulkan yutug‘imiz bo‘ldi. Natijada qo‘shni davlatlar bilan hamkorlik rivojlandi. O‘zaro chegaralar ochilib, yangi o‘tkazish punktlari barpo etildi, aviaqatnovlar, temir yo‘l va avtobuslar yo‘nalishlari yo‘lga qo‘yilgani o‘zaro bordi-keldilarni bir necha bor oshirish, madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirish imkonini berdi.

Natijada mintaqa mamlakatlarining umumiy sayyohlik oqimida ichki mintaqaviy turizmning ulushi 80 foizdan oshdi. Qolaversa, do‘stona munosabatlar, o‘zaro aloqalar izchil rivojlanishi natijasida mintaqamizda yangi iqtisodiy voqelik shakllanmoqda. So‘nggi sakkiz yil davomida Markaziy Osiyo mamlakatlarining yalpi ichki mahsuloti qariyb ikki yarim barobar o‘tib, 520 milliard dollarga, tashqi savdo hajmi esa ikki

kasb etmoqda. Qolaversa, ichki va mintaqaviy logistika rivojiga ijobiy ta‘sir qildi. Maqolada ayollar va yoshlar uchun ta‘lim, innovatsiya sohasidagi imkoniyatlar kengaytirilishi ta‘kidlangan. Ekologik mas‘uliyat va resurslarni samarali boshqarish ustuvor yo‘nalish sifatida qayd etilgan. Tabiatni asrab-avaylash, suv va qishloq xo‘jaligi resurslarini tejamonlik bilan boshqarish, energiya samaradorligi orqali hayot sifati yaxshilash mumkinligi haqida ham so‘z yuritilgan. Savdo hajmining o‘sishi, transport va infratuzilma loyihalari, yoshlar va ekologiyaga oid sa‘y-harakatlar umumiy rivojlanish tendensiyasini ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyoda yangi strategik bosqich boshlandi. Bu davr aholi uchun iqtisodiy farovonlik, bo‘sh ish o‘rinlari va transport infratuzilmasida yangi imkoniyatlar paydo

karradan ziyod ko‘payib, 253 milliard dollarga yetdi. Shu bilan birga, mintaqa mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro savdo hajmi 2 karra oshib, qariyb 11 milliard dollarga yetdi, o‘zaro investitsiyalar esa 5,6 barobar ko‘paydi.

Yaqin-yaqingacha orzu bo‘lib tuyulgan erkin harakatlanish, o‘zaro hurmat, yaqinlik

Buyuk ipak yo‘li orqali shakllangan savdo, madaniyat va ilmiy almashinuv jarayoni mintaqa xalqlarini asrlar davomida birlashtirib kelgan. Shu bois, tarixiy jihatdan bu hududning rivojlanishi doimo qo‘shni davlatlar bilan yaqin aloqalar, savdo-iqtisodiy hamkorlik va madaniy integratsiyaga asoslangan. So‘nggi yillarda O‘zbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik ustuvor yo‘nalishga aylangani tarixiy an‘analarimizga yangicha ma‘no bag‘ishlab, xalqlarimiz o‘rtasida do‘stlik va hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarmoqda. O‘zaro birligimiz, hamjihatligimizga raxna solayotgan ko‘plab muammolar oqilona yechim topmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasini barqarorlik, taraqqiyot va hamkorlik hududiga aylantirish g‘oyasi jamiyatimizda erishayotgan yutuqlarning muhim poydevori bo‘lmoqda. Bu jarayondagi islohotlar yuritimidagi barcha millatlar qatorida uch yuz mingdan ko‘proq qirg‘iz diasporasi ham faol ishtirok etayotgani katta yutug‘imizdir. Zero, O‘zbekiston shu zaminda yashayotgan barcha xalqlar qatorida qirg‘izlar uchun ham kindik qonimiz tomgan muqaddas vatandir. Uni ko‘z qorachig‘iday asrash, yurt ravnaqini yuksaltirish, jamiyatimizdagi totuvlik va barqarorlik muhiti bardavom bo‘lishiga hissa qo‘shish barchamizning farzandlik burchimizdir.

Madaniyatlar uyg‘unligi va hamjihatlik ruhi

16-noyabr — Xalqaro bag‘rikenglik kuni munosabati bilan uyushtirilgan bag‘rikenglik haftaligi haqiqiy do‘stlik, hamjihatlik bayramiga aylanib ketdi. Haftalik doirasida Milliy madaniy markazlar pavilyonida o‘tkazilgan “Bag‘rikenglik ohanglari” katta konsert dasturi yurtimizdagi millatlararo totuvlik, hamjihatlik va do‘stlik an‘analarining yorqin ifodasi bo‘ldi. Tadbirda O‘zbekiston madaniyat va san‘at ustalari, shuningdek, yurtimizda faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlar havasvork jamoalari ishtirok etdi.

Tantanalı tadbirda o‘ziga chiqqanlar bag‘rikenglik tamoyillarining O‘zbekiston taraqqiyotida tutgan o‘rni, mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari o‘zaro hurmat va hamjihatlikda yashayotgani haqida so‘z yuritdi. Shuningdek, UNESCOning 1995-yilda qabul qilingan Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi bugungi kunda dunyoda tinchlik, taraqqiyot va hamjihatlikni ta‘minlashda tutgan o‘rni haqida fikr almashildi.

Tadbir davomida milliy madaniy markazlar vakillari tomonidan yurtimizdagi turfa madaniyatlarining uyg‘unligi va millatlararo do‘stlik ruhi targ‘ib etildi. Konsert so‘ngida barcha ishtirokchilar birgalikda ijro etgan “O‘zbekiston — umumiy uyimiz” qo‘shig‘i davraga o‘zgacha fayz bag‘ishladi. Shu tariqa “Bag‘rikenglik ohanglari” konsert dasturi nafaqat musiqa va san‘at bayrami, balki xalqlar do‘stligi, tinchlik va barqarorlikni ulug‘lovchi ma‘naviy birlashuv ramziga aylandi.

Shuningdek, O‘zbekiston xalqaro islom-shunoslik akademiyasida “Konfessiyalararo muloqot va diniy bag‘rikenglik — jamiyat barqarorligi garovi” mavzusida davra suhbatı, Yoshlar ijod saroyida “Yoshlar bag‘rikenglik elchilari” mavzusida uchrashuvlar o‘tkazildi. Ushbu tadbirlarda millatlararo totuvlikni mustahkamlash, yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish, diniy konfessiyalar o‘rtasida o‘zaro hurmat va muloqotni kengaytirish xususida so‘z bordi.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasidagi adabiy tadbir ham shu sanaga bag‘ishlandi. Unda mamlakatimizda yashab ijod qilayotgan turli millat vakillari — yozuvchi va shoirlar, milliy madaniy markazlar vakillari hamda yosh ijodkorlar ishtirok etdi.

Tadbirda mamlakatimizda turli millat vakillarining ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning madaniy merosini asrab-avaylash va adabiyot orqali millatlararo totuvlikni mustahkamlash borasida yuritilayotgan siyosatning ahamiyati haqida fikrlashildi.

O‘zbek adabiyotini boyitgan Sergey Borodin, Yavdot Ilyosov, Zoya Tumanova, Mixail Sale, Sherali Loyiq, Aleksandr Faynberg, Ninel Vladimirova kabi ijodkorlar nomi bugun ham ehtirom bilan tilga olinadi. Ularning izidan borayotgan Kengesboy Karimov, Nikolay Ilin, Qalidbek Seydanov, Paymon, Galina Dolgaya singari adiblar O‘zbekiston adabiy makonining zamonaviy ko‘p tili ovoziini shakllantirmoqda.

Tadbir yakunida turli milliy madaniy markazlar — uyg‘ur, turkman, tojik, turk, qirg‘iz, qozoq va ozarbayjon ijodkorlari tomonidan chop etilgan kitoblar ko‘rgazmasi namoyish etildi. Ko‘rgazma ishtirokchilarga qardosh xalqlar adabiy merosi, ularning O‘zbekiston madaniy hayotidagi o‘rni va hissasini yanada chuqurroq anglash imkonini berdi.

Bir so‘z bilan aytganda, haftalik doirasida o‘tgan har bir tadbir “O‘zbekiston — bag‘rikeng diyor” g‘oyasining hayotimizda berayotgan samaralarini namoyon etib, millatlararo totuvlik, do‘stlik va hamjihatligimizning yorqin namunasi bo‘ldi.



Gulchehra JO‘RAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

bo‘lishi, ekologiya, inson kapitali masalalari ustuvorlikka egaligini yana bir bor isbotladi. Bular mintaqa mamlakatlariga nafaqat ichki rivojlanishga erishish, balki xalqaro arenada kengroq “o‘ziga xoslik”ka ega subyektlar sifatida chiqish imkonini bermoqda. Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, taraqqiyotning yangi bosqichiga bizni olib boradigan yo‘l sodda — rejanı harakatga aylantirish va natijaga erishish...

Inson yer olib, uy-joy qurib, o’sha joyda oilasi bilan yashar ekan, amalda shu manzil uning hududi, xonadoni hisoblanadi. Ammo qandaydir sabablarga ko’ra buni tasdiqlaydigan huquqiy asos — turar joyning kadastr ma’lumotlari, ya’ni o’sha fuqaroga tegishli ekanini ko’rsatuvchi qonuniy hujjat bo’lmasa-chi? Bu holat millionlab yurtdoshlarimizga tanish. Vaqtida ko’chmas mulkning hujjatlariga e’tiborsizligi sabab yillar davomida o’z uyida xuddi begonadek yashab kelayotgan fuqarolar soni anchagina.



Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“O’zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan bino va inshootlarga bo’lgan huquqlarni e’tirof etish to’g’risida”gi qonun minglab yurtdoshlarimiz kutayotgan huquqiy asos bo’ldi. Yangi qonun oradan uch oy o’tib — 2024-yilning 8-noyabridan kuchga kirdi va mamlakatimiz hayotida xususiy mulk kafolatini ta’minlashdagi eng katta islohotlardan biriga aylandi.

Jarayon yurtdoshlarimiz tomonidan katta quvunch bilan kutib olinib, o’z yer va mol-mulklariga yillar davomida egalik huquqini ololmay kelayotgan odamlarga umid va ishonch berdi. Hujjatlarini rasmiylashtirish uchun darrov kadastr tashkilotlariga yugurgan fuqarolar ham bo’ldi. Ammo qonunga ko’ra, egalik huquqini e’tirof etish ishlari xatlov asosida, har yili reja bilan tasdiqlangan mahallalarda tartibli ravishda olib borilishi ma’lum qilindi. Shundan so’ng odamlar “Qachon xonadonimizga kadastr xodimi kelar ekan?” deya kuta boshladi. Biror kishi bilan subhat asnosida kadastr haqida so’z ochilib qolsa ham, albatta, shu mavzu tilga olinadi.

Ammo bu jarayonda fuqarolar qayergadir murojaat qilishi, biror tashkilotga yugurishi talab qilinmaydi. Hammasi kadastr muhandislari tomonidan uyuma-uy yurib amalga oshirilayotgan xatlov orqali o’tkaziladi. Ya’ni o’tgan yilning 8-noyabr sanasidan boshlab Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi xodimlari tomonidan yurtimiz bo’ylab keng ko’lamdagi xatlov ishlari olib borilyapti. Ma’lumotlarga ko’ra, xatlov jarayonlariga 4,5 ming kadastr xodimi jalb qilingan bo’lib, ular reja-jadval asosida belgilangan mahallalarda uyuma-uy yurib, har qanday ob-havo sharoitida xatlovni davom ettiryapti. Xatlov asosida fuqarolarning o’zlariga tegishli, ammo hujjatsiz yoki o’zboshimchalik bilan o’zlashtirilgan yer va unda qurilgan uy-joylarga nisbatan egalik huquqlari e’tirof etilmoqda.

— Hozirga qadar 3722 ta mahalla chegaralariga aniqlik kiritilgan bo’lib, rejaqa ko’ra, 2026-yilda mavjud 9008 ta mahalla chegarasini belgilash to’liq yakunlanadi, — deydi Davlat kadastrlari palatasi raisi Mohir Valiyev. — Joriy yilning 4-noyabr holatiga ko’ra, yurtimiz bo’ylab 845 ming 96 ta obyekt xatlovdan o’tkazildi. Shundan 18 ming 682 tasiga xalq deputatlari kengashlari qarori bilan egalik huquqi e’tirof etildi. Bu shuncha xonadonga kadastr hujjatlari rasmiylashtirildi degani.

Jarayonda kadastr muhandislarining aniq, shaffof va mas’uliyat bilan ishlayotgani e’tiborimni tortdi. Har bir raqam, har bir ma’lumot e’tibordan chetda qolmayapti. Boisi, umumiy ma’lumotlarni shakllantirishda aniqlik o’ta muhim. Axir xatlov jarayonlari nafaqat fuqarolarga mulk huquqlarini e’tirof etish, balki mamlakatimizning har qarich yerini aniq belgilashga qaratilgan.



MILLIONLAB OILALAR QUUVONCHI

Xatlovdan o’tmagan uy qolmaydi

Shu kunlarda qonun kuchga kirganiga bir yil to’ldi va o’tgan davr mobaynida amaliyotda qilingan ishlar, xatlov jarayonlari, hujjatsiz yer va mol-mulkarga huquqlarni e’tirof etish bilan bog’liq natijalar ko’pchilikka qiziq. Kadastr agentligi hamda Davlat kadastrlari palatasi tomonidan jurnalistlar uchun tashkil etilgan press-tur davomida amaliy jarayonlarga bevosita guvoh bo’ldik. Manzilimiz Toshkent viloyati O’rta Chirchiq tumani “Fayzobod” MFY bo’ldi.

Toshkent viloyati hududi jihatidan ham, aholi soni jihatidan ham salmoqli o’ringa ega. Viloyat yer maydoni 1 million 514 ming 926 gektarni tashkil qilib, unda 811 mingta ko’chmas mulk borligi qayd etilgan. Ayni vaqtda hududda xatlov jarayonlari qizg’in kechmoqda.

— Shu yilning 5-noyabr sanasiga qadar viloyatda 91 ming obyekt xatlovdan o’tkazilib, shundan 34 mingtasi “E’tIROF” dasturiga kiritilgan bo’lsa, 1300 tasiga egalik huquqi e’tirof etildi, — deydi Davlat kadastrlari palatasi Toshkent viloyati boshqarmasi boshlig’i Jasur Ahrorov. — Qolganlari muhokama, e’lon va kelishuv jarayonlarida turibdi. 2024-2025-yillarda Toshkent viloyati bo’yicha 558 ta mahallani xatlovdan o’tkazish reja-grafigi tasdiqlangan. Hozirgi kunda bu rejani 93 foiz bajardik. Xatlov ishlariqa 300 muhandis jalb qilingan bo’lib, zamonaviy o’lchash asboblari bilan ta’minlangan. Har biriga kuniga 3-4 tadan xonadonni xatlovdan o’tkazish to’g’ri keladi.

Jurnalistlar shu kabi ma’lumotlar bilan tanishar ekan, kunning ancha sovuqligi sezildi. Kadastr muhandislari esa allaqachon ishini boshlab yuborgan. Har biri o’ziga birkiritilgan xonadonga kirib, aholining roziligi asosida xatlov o’tkazyapti. Dastlab xonadon egasi va unga tegishli uy-joyning hujjatlari so’ralmoqda. So’ng belgilangan namunada barcha ma’lumotlar qayd etilib, shundan keyin mazkur turar joy va unga yondosh maydonlar chegaralari maxsus o’lchov asboblari yordamida o’lchanyapti.

— Xatlov belgilangan mahallaga birinchi bo’lib keladigan xodimlar topograflar, — deydi Davlat kadastrlari palatasi mas’ul xodimi Lutfullo Azizov. — Ular zamonaviy o’lchash asboblari yordamida mahalla chegaralarini o’lchab keradi. Keyin har bir ko’chmas mulkning chegaralari asosida poligon shakllantiriladi. Ana shu xarita bo’yicha hududlarga kadastr muhandislari birkiritiladi. Har biri maxsus beylikka ega, qo’lida ma’lumotnoma namunasini tutgan kadastr muhandisi uyuma-uy yurib, fuqarolar bilan to’g’ri-ridan to’g’ri muloqot orqali xatlov ma’lumotlarini to’ldiradi. Xonadonda birlamchi ko’chmas mulk hujjatlari mavjud yoki mavjud emasligi aniqlashtiriladi. Kadastr hujjati bo’lsa ham, bo’lmasa ham o’sha xonadon xatlovdan o’tkaziladi.

Gap shundaki, bu xatlov umumiy bo’lib, unda nafaqat o’zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkasi va qurilgan bino-inshootlar, balki har bir uyning chegarasini aniqlab, maxsus axborot dasturiga kiritish ishlari olib borilmoqda. Bundan ko’zlangan maqsad yurtimizdagi har qarich yer va ko’chmas mulkning aniq hisob-kitobini yuritish, ularga tegishli barcha ma’lumotlarni to’g’ri shakllantirish hamda elektron bazada jamlashga qaratilgan.

— Hozirgi kunda O’zbekistonda 7 million 300 mingta ko’chmas mulk mavjud bo’lib, barchasi xatlov jarayonlari orqali birmabir axborotlashgan tizimga kiritib boriladi, — deydi Kadastr agentligi direktori o’rinbosari Mirsaid Mirmasqudov. — Xatlovning yana bir afzalligi, jarayonda aniqlangan chegaralar, raqamlar bilan bog’liq tafovutlar ham joyida bartaraf etilyapti. Bu ko’chmas mulklar haqida aniq va ishonchli

HUJJATSIZ YER VA UY-JOYNI QONUNIYLASHTIRISH ISHLARI DAVOM ETMOQDA

ma’lumotlar shakllanishi, shu orqali turli sohalarning sifatli ishlashiga xizmat qiladi.

Kadastr muhandislari fuqarodan hujjatlarni so’rab, tegishli ma’lumotlarni namunaga kiritgach, uni maxsus raqamlaydi. Keyin esa shu xonadon chegaralari o’lchab chiqiladi. Bu jarayonlarning barchasi muloqo bepul bo’lib, odamlardan hech qanday to’lov talab

yerimizning ham kadastr hujjatini olsak, juda yaxshi bo’lardi. Yaqin vaqtda bu masala ijobiy yechim topishiga umid qilayapmiz. Mushkulimiz oson bo’lardi.

Xatlovni o’tkazayotgan kadastr muhandisining aytishicha, ko’chmas mulk xonadon egasi Eldor Ismoilovga tegishli bo’lib, amaldagi 11,3 sotix yer maydonining 10 sotix

odamlar o’ylaganidek, Kadastr agentligi e’tirof etish huquqiga ega emas. Bu bir necha davlat tashkiloti xulosasi asosida amalga oshadi.

Mahallalar chegaralari aniqlanib, xaritasi tuzilgach, kadastr muhandislari xatlov o’tkazib, har bir obyekt bo’yicha tuzilgan yig’ma jildlarni “E’tIROF” axborot tizimiga yuklaydi. Undagi ma’lumotlar esa “UZKAD” tizimida

va har bir ko’chmas mulk bo’yicha vakolatlari doirasida o’z xulosalarini axborot integratsion tizimiga yuklaydi. Ularning natijalari Kadastr agentligi sayti orqali jamoatchilikka e’lon qilinadi. Barcha tashkilotlardan xulosa berilgach, ko’chmas mulk ikki oy davomida muhokamada, bir oy e’londa turadi. Bu vaqt davomida salbiy xulosa berilgan ko’chmas mulk egasi tegishli tartibda murojaat qilib, xatolikni tuzatishi mumkin. Agar xulosa o’zgarmasa, o’sha mulkka nisbatan egalik huquqi e’tirof etilmaydi.

Ijobiy xulosa qabul qilingan fuqarolarga SMS xabaromna yuboriladi. Shu asosda bir martalik to’lovni amalga oshirganlarga har chorakda Xalq deputatlari viloyat kengashi qarori bilan huquqlar e’tirof etiladi. Bir martalik to’lov narxlari turli hududlarda turlicha etib belgilangan. Kam ta’minlangan va nogironligi bor shaxslarga imtiyozlar beriladi. Ushbu jarayonlarning barchasi raqamlashgan axborot tizimi orqali amalga oshiriladi.

Shunday qilib, huquqlari e’tirof etilgan fuqarolarga SMS xabaromna yuborilishi ko’chmas mulkni davlat ro’yxatidan o’tkazish uchun bir martalik to’lovni amalga oshirish zarurligini anglatadi. Buning uchun fuqaro Davlat xizmatlari markazlari orqali ariza topshirishi va tegishli to’lovni to’lashi kerak. Shundan keyingina ko’chmas mulk davlat ro’yxatidan o’tgan hisoblanib, unga kadastr hujjati beriladi. Ammo soha xodimlarining aytishicha, aholi orasida SMS xabaromna kelgani yoki viloyat Xalq deputatlari kengashining qarorini qo’liga olganining o’zi ko’chmas mulkka egalik huquqini beradi degan noto’g’ri tushuncha bor. Shu va boshqa sabablarga ko’ra, bugungi kunda minglab yurtdoshlarimizning ko’chmas mulkiga nisbatan huquqlari e’tirof etilganiga qaramay, aksariyati davlat ro’yxatidan o’tkazilmagan.



qilinmaydi. Faqat muhandislar xatlovni o’tkazib olishiga rozilik berish kifoya. Boisi, fuqaro kadastr muhandisini xonadoniga kirgazmasligi ham mumkin ekan. Ma’lumotlarga ko’ra, mingga yaqin shunday holat kuzatilgan bo’lib, bu xatlov jarayonlari cho’zilishiga sabab bo’lmoqda. Mas’ullarning aytishicha, tartibga ko’ra bitta mahallada xatlov ishlari tugatmasdan turib boshqasiga o’tish mumkin emas. Kadastr muhandislari ayrim xonadonlarga qayta-qayta borayotgani boisi shunda. Jiddiy qarshilik ko’rsatilgan holatlarda esa mahalla raisi va profilaktika inspektori hamrohligida borilib, xatlov jarayonlari o’tkaziladi. Chunki yurtimizdagi har bir xonadon xatlovdan o’tkazilishi kerak.

Kadastr muhandislariga hamrohligimiz davomida bunday holatlarga duch kelmadi. Aksincha, aholining o’zi muhandislarni chaqirib, mamnuniyat bilan qarshi olayotgani, so’ralgan hujjatlarni darhol taqdim qilayotganiga guvoh bo’ldik. Ayrim xonadon egalari o’z turar joyiga egalik huquqini olishni uzoq yillardan buyon kutayotgani va nihoyat kadastr hujjatlariga ega bo’lishdan mamnun ekanini aytdi.

— Yoshim 51 da, 24-yildan buyon shu xonadonda istiqomat qilaman, — deydi “Fayzobod” MFYda yashovchi Zubayda Ismoilova. — Yerning umumiy maydoni o’n bir sotix, shundan 1,3 sotixning kadastr hujjati yo’q. Lekin uch baravar soliq to’lab kelyapmiz. 1,3 sotix yerning hujjati yo’qligi ham bizga yillar davomida muammo tug’diryapti. Hujjat bo’yicha qaysi idoraga borsak, shu masala o’rtaga chiqadi. Hozirgacha bu muammoni hal qilolmadik. Kadastr hujjatini rasmiylashtirish uchun bormagan joyimiz qolmadi, lekin imkoni bo’lmadi. Shu boisi, kadastrchilarni ko’rib xursand bo’lib ketdik. Mana shu 1,3 sotix

qismi hokim qarori bilan ajratilgan, qolgani esa keyinroq egallangan. Xatlov jarayonida mulkka oid ma’lumotlar tegishli tartibda qayd etilib, axborot tizimiga kiritildi. Endilikda mazkur mulk bo’yicha tegishli tashkilotlardan iborat komissiya o’z xulosalarini tizimga kiritadi, yakunda ijobiy xulosa berilsa, ortiqcha egallangan yer maydoni fuqaroga 99 yilga ijara shartnomasi asosida ajratiladi, ya’ni egalik huquqi e’tirof etiladi.

Egalik huquqi e’tirof etildi, ammo...

Ha, buni birgina tashkilot qarori hal qilmaydi. Xatlov o’tkazilgani va ma’lumotlar qayd etilgani ham o’sha ko’chmas mulkka egalik huquqi berilishi kafolatlanadi degani emas. Bu bo’yicha yuqoridagi qonunda asosiy shartlar va talablar aniq belgilangan. Masalan, yer boshqa shaxsga ajratilmagan yoki auksionga chiqarilmagan bo’lishi, yer bo’yicha nizo bo’lmasligi, bosh reja talablariga zid emasligi va boshqa omillar hisobga olinadi. Qolaversa, qonun bo’yicha 8 ta toifadagi obyektlar uchun mulk huquqini rasmiylashtirishga ruxsat berilgan. Ular 2018-yil 1-mayga qadar o’zboshimchalik bilan egallagan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlar, maydondan ortiqcha egallangan yer uchastkasi hamda unda qurilgan uy-joylar, “bir martalik aksiya” doirasida huquqlarni e’tirof etish oxiriga yetmagan mulklar va hokazoni o’z ichiga oladi.

Tartibga ko’ra, bino-inshootlar mulk huquqi, yer uchastkalari esa ijara huquqi asosida e’tirof etilmoqda. Bunda yakka tartibdagi turar joylarga 99 yilga, boshqa yerlar uchun 49 yillik ijara huquqini e’tirof etish nazarda tutilgan. Ammo

faollashtiriladi. Axborot tizimiga har bir ko’chmas mulk va mulkdorning ma’lumotlari kiritiladi. Keyingi qadamda ma’lumotlarni 18 dan 23 tagacha davlat tashkiloti ko’rib chiqadi

Ko’chmas mulkiga egalik huquqi e’tirof etilib, boshi osmonga yetayotgan odamlar haqida yozish boshqa-yu, ularning quvunchini bevosita ko’rib, hayajonlariga sherik bo’lish boshqa ekan. Toshkent viloyati Kadastr boshqarmasida ayni shu jarayonga guvoh bo’ldik. Viloyatda istiqomat qiladigan yana 4 fuqaroning ko’chmas mulk obyektiga egalik huquqi rasman e’tirof etilib, kadastr hujjati tantanali tarzda topshirildi.



Yanada aniqroq aytadigan bo’lsak, 2025-yil 4-noyabr holatiga ko’ra, huquqlari e’tirof etilgan 18 ming 682 nafardan ortiq ko’chmas mulk egasining 1478 nafarigina mulklarini davlat ro’yxatidan o’tkazish uchun ariza topshirgan. Ya’ni xususiy mulk e’tirof etilganidan keyin ham ro’yxatdan o’tkazmaslik 90 foizni tashkil qilyapti.

— Qonun bo’yicha ro’yxatdan o’tish uchun ariza topshirishga bir oy muddat beriladi, — deydi Davlat kadastrlari palatasi raisi Mohir Valiyev. — Bu vaqt davomida fuqaro xabardor qilib boriladi. Agar shunda ham ro’yxatdan o’tish uchun ariza topshirmasa va belgilangan muddatni buzsa, unga ma’muriy javobgarlik belgilanishi nazarda tutilgan. Ammo hozircha jarima masalasi qo’llanilmay turibdi. Tizim to’liq elektronlashtirilgach, jarima avtomatik tarzda qo’llanila boshlaydi. Shu boisi, xatlov natijalari ijobiy topilgach, fuqarolar ko’chmas mulkni davlat ro’yxatidan o’tkazish uchun o’z vaqtda ariza topshirishlari tavsiya etiladi.

Nega fuqarolar imkoniyatdan foydalanmayapti?

Odamzodning tabiati g’alati, qancha ko’p qulaylik yaratilsa, undan foydalanishni shuncha ortga suraveradi. Ochig’i, yuqoridagi raqamlarni eshitib hayron qoldim. Sababi, millionlab yurtdoshlarimiz ayni shu qarorni — o’z xususiy mulklariga huquqlari e’tirof etilishini yillarki, intizor kutgan. Hozir ham axborot tizimidan o’z mahallasi nomini izlab, “kadastr xodimi uyimizga qachon kelar ekan” deb kun sanayotganlar ko’p. Ammo asosiy harakatlar bajarilib, huquqni e’tirof etish hujjatini qo’lga olganlaridan keyin birgina ariza topshirib, mulkni davlat ro’yxatidan o’tkazishga kelganda e’tiborsizlik qilayotganlari kishini ajablantiradi.

Vaholanki, yurtdoshlarimiz avval ming tarafga chopib ham bu masalani hal eta olmagan sir emas. To’g’ri, oldin ham e’tirof etish ishlari aksiyalar tarzida o’tkazilgan. Ammo mutaxassislarning aytishicha, jarayonda qator kamchiliklar ko’zga tashlangan va aksariyati aholining zarariga ishlagan. Masalan, aksiyalarda ortiqcha egallab olingan yerlar davlat zaxirasiga qaytarilishi nazarda tutilgan. Yangi qonunda esa unday emas, ortiqcha egallagan yer maydoni o’sha fuqaroning o’ziga tomorqa xo’jaligi sifatida rasmiylashtirib beriladi. Qolaversa, aksiyalarda egalik huquqini e’tirof etish ixtiyoriy bo’lib, bundan ko’p odamlar xabarsiz qolgan. Hozir esa har bir xonadonga kadastr muhandislarining o’zi borib, xatlov asosida ma’lumotlarni elektron axborot tizimiga kiritmoqda. Fuqarolar eng oxirida ariza orqali mulkni davlat ro’yxatidan o’tkazib olsa bo’lgani.

Jarayonda kadastr muhandislarining aniq, shaffof va mas’uliyat bilan ishlayotgani e’tiborimni tortdi. Har bir raqam, har bir ma’lumot e’tibordan chetda qolmayapti. Boisi, umumiy ma’lumotlarni shakllantirishda aniqlik o’ta muhim. Axir xatlov jarayonlari nafaqat fuqarolarga mulk huquqlarini e’tirof etish, balki mamlakatimizning har qarich yerini aniq belgilashga qaratilgan.

Ana shunday fidoyi, o’z kasbiga sadoqatli mutaxassislarni e’tirof etish ham jarayonning bir qismiga aylangan. Xususan, Davlat kadastrlari palatasi tomonidan jori yilning sentyabr oyi xatlov natijalari asosida top-10 ilg’or kadastrchilar aniqlanib, pul mukofodlari bilan taqdirlandi. Ilg’orlar safida ayol kadastrchi — naivoylik Madina Abdurahmonova yetakchilik qilib, bir oy davomida 145 ta obyektini xatlovdan o’tkazishga erishgan. Bunday rag’batlantirish har oy yakunlari bo’yicha bo’lishi reja qilingan.

Uzoq kutilgan umidning ro’yobi

Ko’chmas mulkiga egalik huquqi e’tirof etilib, boshi osmonga yetayotgan odamlar haqida yozish boshqa-yu, ularning quvunchini bevosita ko’rib, hayajonlariga sherik bo’lish boshqa ekan. Toshkent viloyati Kadastr boshqarmasida ayni shu jarayonga guvoh bo’ldik. Viloyatda istiqomat qiladigan yana 4 fuqaroning ko’chmas mulk obyektiga egalik huquqi rasman e’tirof etilib, kadastr hujjati tantanali tarzda topshirildi. Ular orasida tug’ilganidan buyon o’z uyida begonadek, ya’ni kadastr hujjatsiz yashab kelayotganlar ham bor.

— Xonadonimning yer maydoni 13 sotix, 20 yildan buyon oilam bilan shu uyda yashab kelaman, — deydi Oqqo’rg’on tumani Qo’riq qishlog’ilik Saylov Qurulov. — Ammo shu paytgacha uyimning kadastr hujjatlari bo’lmagan. Bu bo’yicha tegishli tashkilotlarga ko’p marta murojaat qilganimizga qaramay, masala hal bo’lmadi. Asosan, ro’yxatga qo’yishda muammo tug’ilardi. Qozog’istonda istiqomat qiladigan qizlarim, qarindoshlarim kelsa, 5 kungina qola oladi. Ularni xonadonimga ro’yxatga qo’yishning imkoni bo’lmagan. Endi bu masalada qiynalmaymiz. Chunki kadastrchilarning o’zlari uyimga borib, yer maydonini o’lchab, 13 sotixning bariga egalik huquqini rasmiylashtirib berdi. Kadastr hujjatlarini bir oy ichida qo’limga oldim.

Bugun minglab yurtdoshlarimiz shunday quvunchni tuyumoqda, yana qanchasini bu egulik kutib turibdi. Xalqimiz uzoq kutgan va kuchga kirganiga bir yil to’lgan yuqoridagi qonun 2028-yil 1-yanvargacha qadar amal qiladi va hujjatlashtirish amaliyoti uch yildan ziyod vaqt davomida to’liq amalga oshirilishi belgilangan. Ya’ni mamlakatimizdagi huquqni e’tirof etish talablariga javob beradigan har bir yer uchastkasi va unda qurilgan bino-inshoot belgilangan muddatga qadar kadastr hujjatlariga ega bo’ladi.

Xatlov o’tkaziladigan mahallalarning reja-jadvali esa har yilning oxirida Kadastr agentligi saytida e’lon qilinadi. Agar xonadoningiz bu yil xatlovdan o’tmagan bo’lsa, dekabr oyida e’lon qilinadigan kelasi yil reja-jadvaliga kiritilishi hech gap emas.

YASHIL MAYDON

BOLALARINING ALPLIK XISLATI

ZAMONAVIY O'YINGOHDA QAYTA UYG'ONADI



Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Futbol faqat taktika, texnika, dribling, tezlik, kombinatsiyadan iborat bo‘lganida bu darajada ommalashmas, hech qachon qo‘limizdan kelmaydigandek ko‘ringan xatti-harakatlar natijasi bizni bunchalik hayajonga solmas edi. Chunki u — kurashi, iroda, ishonch ramzi. Shu jihati bilan futbol hayotga o‘xshaydi: kutilmaganda hayratlantirib, o‘ziga yanada yaqinlashtiradi. Insoniy fazilatlar futbolchilarning mahoratidan ham muhim ahamiyatga ko‘tarilishi aynan yashil maydonda ko‘proq kuzatiladi. Shuning uchun ham sport turlari orasida faqat futbol qobiqni yorib chiqib, kattaroq mazmun kasb eta olgan.

Bu o‘yin sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishdan tashqari jamiyatning umumiy kayfiyatini ham belgilab beradi. Stadionda to‘plangan minglab muxlislar bir yarim soat mobaynida jarayonga singib ketadi. Bu vaqtda turmush tashvishlarini unutib, futbol bilan yashaydi. Muxlis va o‘yinchi o‘rtasida hissiyotga to‘la muloqot paydo bo‘ladi. Futbolning jamiyatda millatlararo totuvlikni ta‘minlovchi vosita sifatidagi vazifasi o‘yinning har lahzasida namoyon bo‘ladi. Yakunda natija qanday bo‘lishidan qat‘i nazar, raqiblar qo‘l berib, bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu futbolning, avvalo, tinchlik-totuvlikka asoslangan sport turi ekanini ko‘rsatadi.

“Millionlar o‘yini” bir qarashda dunyoning barcha hududida bir xil o‘ynaladigandek ko‘rinadi. Aslida, maydonda har bir millatning o‘ziga xos etnik xususiyatlari hamda milliy xarakteri elementlari doim aks etib turadi. Masalan, Angliya futbolida inglizlarga xos sovuqqonlikni, fransuzlarda tashqi ko‘rinishga alohida e‘tibor berish holatini ilg‘ash qiyin emas. Ispaniyada Lotin Amerikasi futboli ta‘sirini g‘alabani milliy raqslar bilan nishonlashda ko‘ramiz. Germaniya futboli esa nafaqat futbolchilar, balki murabbiylar tayyorlab beruvchi maktabi bilan ham mashhur. Afsonaviy ingliz futbolchisi Gari Linekerning “Futbol

22 kishi 90 daqiqa o‘ynaydigan va yakunda nemislar g‘alaba qozonadigan sport turi” degan hazilnamo gapida butun olmon futboliga xos xususiyat mujassam.

Xo‘sh, bugun o‘zbek futbolining boshqalardan ajratib turuvchi asosiy belgilari nimada?

“Jang qilayotgan askar shamollamaydi” degan gap bor. Boisi, butun vujud kattaroq xavf bilan kurashayotganda, o‘lim bilan yuzma-yuz kelganda, oddiy, kichik xastaliklar o‘z-o‘zidan chekinib ketaverar ekan. Chindan ham okopda o‘tirgan askarning suv ichgisi kelsa, to‘mog‘i o‘g‘rimasin, deya issiqroq suv qidirishi bir oz kulgili ko‘rinadi.

Buni ustuvorlik deyiladi. Biror kichik masala asosiy maqsadga erishishda xalal berganida undan voz kechiladi. Masalan, tajriba o‘rtirish uchun mehnat qilish dam olish huquqidan ustun, millat umidini yelkaga olib maydonga tushish shaxsiy istaklardan o‘n baravar yuqori turadi. O‘zbek futbolini mana shu ustuvorlik orqali tanib olamiz. Yashil maydonda jussasiga nisbatan ancha katta iroda va matonat namoyish etayotgan yigitlarni ko‘rsangiz, demak, maydonda o‘zbeklar to‘p surmoqda.

Bunday metin xarakterning paydo bo‘lishida, shubhasiz, mamlakatimizda so‘nggi yillardagi keng ko‘lamli ishlarning ta‘siriga ega. O‘tgan qisqa davrda mahalliy chempionatlar tizimi isloh qilinib, bolalar va o‘smirlar akademiyalari tashkil etildi. 2017-yilda yurtimizda FIFA va Osiyo futbol konfederatsiyasi talablariga javob beradigan maydonlar soni atigi 3 ta edi. Bugun ularning soni 10 dan oshdi. Yaqinda Yuqori Chirchiq tumanida zamonaviy Milliy futbol markazi qurib bitkazildi. Ushbu soha rivoji uchun jahonning nufuzli futbol klublaridan trenerlar, sport tibbiyoti va farmakologiyasi bo‘yicha malakali mutaxassislar, sport psixologlari jalb qilindi. Bu sa‘y-harakatlar natija bera boshladi.

Futbol bo‘yicha olimpiya terma jamoamiz o‘tgan yili Parijdagi olimpiadada birinchi marta ishtirok etdi. Tariximizda ilk bor milliy terma jamoamiz kelgusi yilda bo‘ladigan jahon chempionati yo‘llanmasini qo‘lga kiritdi. O‘zbekiston o‘smirlar terma jamoasi (U-17) aql bovar qilmas yo‘lni bosib o‘tib, o‘z tarixida uchinchi marta Osiyo chempionati finaliga chiqdi va g‘alaba qozondi. O‘n uch yildan so‘ng tarixiy natijani takrorlab, 2012-yildan



Yuksalish pallasi

buyon ilk marta sovrinni boshi uzra baland ko‘tardi. Ayni kunlarda Qatarda bo‘layotgan jahon chempionatida 17 yoshgacha bo‘lgan futbolchilarimiz Osiyo chempioni sifatida mamlakat sharafini himoya qilmoqda.

“Vest Bromvich” mo‘jizasi: Islom Ismoilovning da‘vatkor xitobi

O‘zbekiston U-17 terma jamoasi bosh murabbiyi Islom Ismoilov yoshlardagi turkiy

quvvatni, qahramonlik ruhini qanday uyg‘ota olganini yaqin o‘tmishdagi bir ajoyib voqea bilan bog‘lab tushuntirsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

2015-yil. Yurgen Klopp “Liverpool”ga endigina kelgan paytari edi. Jamoa jadvalda o‘rta o‘rinlarda, natijalar beqaror, kelasi mavsum uchun strategiya hali to‘liq shakllanmagan. Kloppning e‘tibori shov-shuvli transfer rejasida emasdi, darhol taktikani o‘zgartirishga ham oshiqmadi. Uning maqsadi boshqa — “Liverpool”ga ishonch tuyg‘usini qaytarish edi.

Bir o‘yinda bu g‘oya kutilmaganda tarzda ko‘zga tashlandi: “Enfild”da “Vest Bromvich” bilan kechayotgan uchrashuvning so‘nggi daqiqalari. “Liverpool”ning navbatdagi mag‘lubiyatini muxlislar allaqachon tan olib bo‘lgan, shunchaki hakam hushatgini chalisga shoshilmayotgandi. Biroq Kloppning jamoasi shu qadar shiddatli hujumlar uyushtirdiki, raqib dosh bera olmadi, hisob tenglashdi. 2:2. “Liverpool”dek jamoa uchun oddiy, balki qoniqarsiz natija. Birgina ochko beriladi, xolos. Ammo eng qizig‘i o‘yin tugagach boshlandi. Klopp shogirdlari bilan qo‘l ushlab, ashaddiy muxlislar o‘tiradigan tarafga bordi. Birgalikda durangni nishonlay boshlashdi. Hamma tizilib olgan, maydon cheitga qarab yugurib, muxlislar yoniga borganda qo‘lni yuqoriga ko‘tarishadi. Yana ortga qaytib, shu holat takrorlanaveradi. Nimalar bo‘laypti o‘zi?

Gap shundaki, Klopp ish boshlaganining ilk oylaridayoq “Liverpool” uchun begona bo‘lmagan tuyg‘uni eslatayotgan edi: hech qachon taslim bo‘lma!

To‘g‘ri, har qanday jamoa 2:1 hisobida yutayotganida, oxirgi daqiqalarda kuchli bo‘lib ketadi. Raqib kim bo‘lishidan qat‘i nazar,

oxirgi daqiqalarda gol urish oson emas. Aslida, “Liverpool” o‘sha oqshom “Vest Bromvich”dan bir ochko olganini emas, oxirgi daqiqalarda vazifa uddalanganini nishonlayotgan edi. “Hushak chalinmadimi, taslim bo‘lma, harakat qilaver, muxlislar biz bilan, biz uddalaymiz, bugun bo‘lmasa, ertaga, vazifa qay darajada og‘ir bo‘lmasin, bu ish qo‘limizdan keladi”. Mana shu g‘oyani bir-ikki futbolchi yoki tarkibga emas, butun “Liverpool” aurasiga, klub xodimlaridan tortib, muxlislargacha singdirish kerak edi. Klopp buni uddaladi. Ana shu ruh keyinchalik “Liverpool”ni Yevropa chempioniga aylantirdi. Qator sovrinlarni taqdim etdi. “Vest Bromvich” mo‘jizasi esa futbolchilar uchun ilhom manbaiga aylandi.

2025-yil 20-aprel. Osiyo kubogi finali. O‘zbekistonlik o‘yinchilar birinchi bo‘limning o‘zidayoq 2 ta qizil kartochka oldi. Oqibatda maydonda 9 kishi bo‘lib to‘p surishga majbur bo‘ldi. O‘zbekiston U-17 terma jamoasi bosh murabbiyi Islombek Ismoilov tanaffus payti yigitlarga bunday dedi: “G‘alaba qozonishni xohlaysizlarmi? Agar shunday bo‘lsa, barchasini unutib, kurashga kirishish kerak. Chunki ayni damda taqdiringizni o‘zingizdan boshqa o‘zgartira oladigan hech kim yo‘q”.

Shundan keyin nima bo‘lganini bilamiz. Yigitlarning fantastik g‘alabasini eslab, hamon entikamiz. Islom Ismoilov fe‘l-atvorida o‘zbekona qat‘iyat bormidi yoki o‘smirlar favqulodda iste‘dodli edimi, bugun buni hech kim aniq ayta olmaydi. Jamoa o‘z darajasini maydonda isbotladi. Eng muhimi, har qanday vaziyatda, har qanday raqibga qarshi istalgan vazifani uddalash mumkinligiga ishonch paydo bo‘ldi.



Davlatimiz rahbarining kuni kecha tibbiyot va farmatsevtika xodimlari bilan uchrashuvida ilgari surilgan tashabbuslar mamlakat sog‘liqni saqlash tizimini zamonaviy standartlarga mos ravishda qayta qurish va inson salomatligini ustuvor qadriyatga aylantirishga qaratilgan. Zero, ushbu muloqotda tibbiyot tizimi mutasaddilari oldiga har bir inson uchun qulay, adolatli va shaffof tibbiy xizmatni yo‘lga qo‘yish vazifasi yuklatildi.



Bahrom ABDULLAYEV,
Oliy Majlis Senatining Fan, ta‘lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi raisi

Xususan, 2026-yildan boshlab 26 ta markaz direktorlari, viloyat va tuman sog‘liqni saqlash rahbarlari, oilaviy poliklinika mudirlarini

lavozimga tayinlashda yangi tartib joriy qilinadi. Endi “rahbar” va “bosh shifokor” lavozimlari ajratiladi. Mazkur yangilik oddiy tashkiliy o‘zgarish emas, balki butun boshqaruv madaniyatini yangilashga qaratilgan islohot, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu orqali tibbiyot muassasalaridagi mas‘uliyat ikki asosiy yo‘nalish bo‘yicha aniq taqsimlanadi: rahbarlar — moliya, loyiha va resurslar boshqaruvi, bosh shifokorlar esa klinik jarayonlar va tibbiy xizmat sifati uchun javobgar bo‘ladi. Ta’kidlanganidek, har ikki lavozimda bilimli, tajribali va natija ko‘rsatgan kadrlar ishlashi lozim.

Prezidentimizning ushbu qarori sohada yillar davomida to‘plangan muammolarni chuqur tahlil qilish natijasida qabul qilingan bo‘lib, boshqaruvda professionallik, mas‘uliyat va ochiqlikni ta‘minlashga qaratilgan. Ko‘p yillar davomida shifoxonalarda rahbarlik lavozimini egallagan shifokor bir vaqtning o‘zida ham boshqaruvchi, ham klinik rahbar vazifasini bajardi. Natijada hech birga to‘liq e‘tibor qaratilmadi, menejmentda samarasizlik, tibbiy jarayonlarda esa sustkashlik yuzaga keldi.

Endi esa har ikki yo‘nalishda professionallik ustuvor bo‘ladi. Rahbar muassasani iqtisodiy

Tibbiyot

SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMI:

ISLOHOTLAR ENDI FAQAT TASHKILIY O‘ZGARISH BILAN CHEGARALANMAYDI

jihatdan barqaror, xizmat ko‘rsatishni qulay va tizimli tashkil etadigan menejer bo‘lsa, bosh shifokor tibbiy xizmat sifati, protokollarga amal qilish va shifokorlar malakasini oshirishga harakat qiladi.

Yangi tizim doirasida rahbarlar faoliyati KPI — aniq ko‘rsatkichlar asosida baholalanadi. Bu baholash faqat raqamlarga emas, balki odamlar roziligiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, bemorning qabuliga bo‘lgan yo‘li qanchalik qisqa, xizmat qay darajada tez va samimiy ko‘rsatilayotgani, profilaktika ishlari qamrovi, uskunalar qanday ishlatilayotgani, shifokorlar malakasi — bularning barchasi rahbar faoliyatini belgilaydi. Bu hisobot uchun emas, natija uchun ishlaydigan tizim zari muhim qadamdir.

Shu bilan birga, Prezidentimiz yangi tizimdagi yana bir muhim jihati ta’kidladi: hududiy rahbarlar va bosh shifokorlar respublika markazlari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri integratsiya asosida ishlaydi. Har bir hududning salomatlik holati, kasalliklar dinamikasi va ehtiyojidan kelib chiqib, markazlarga profilaktika, davolash, malaka oshirish yoki skining bo‘yicha aniq buyurtma beriladi. Bu holat qarorlar qabul

qilish jarayonini markazlashtirilgan emas, balki joylardagi haqiqiy ehtiyojga tayanib qayta qurishga xizmat qiladi.

Yig‘ilishda davlatimiz rahbarining inson og‘rig‘ini his etish, bemor yo‘lini shaxsan bosib o‘tish haqidagi so‘zlari soha vakillari qalbidacha chuqur iz qoldirdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu fikr rahbarlik mas‘uliyatini faqat vazifa emas, balki insoniy burch sifatida qabul qilish zarurligini yana bir bor eslatdi. “Bugun odamlarning hayotga munosabati ham, talab va ehtiyojlari, dunyoqarashi ham tubdan o‘zgardi. Bu boshqa sohalar qatori tibbiyotda ham sifati oshirish, zamonaviy yondashuvlar olib kirish bo‘yicha oldimizga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Shu bois, tibbiyotda xalqning bahosini eshitadigan tizimni joriy qilamiz”, dedi Prezidentimiz.

Bu so‘zlar nafaqat tanqid, balki rahbarlar uchun amaliy ko‘rsatmadir. Chunki har kuni minglab odam navbat kutishga majbur bo‘lmoqda. Ular uchun tibbiy xizmat sifati o‘lchovi tizimdagi hisobotlar emas, balki insonga munosabatda aks etadi. Shu bois, bu boradagi ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish bo‘yicha qat‘iy vazifalar belgilandi.

Shuningdek, har bir viloyat va tuman tibbiyot bo‘limlari rahbarlari, bosh shifokorlar hamda poliklinika mudirlariga mahallalarda kunlik qabullar o‘tkazish vazifasi topshirildi. Bu orqali rahbarlar xalq ichiga kiradi, odamlarning muammosini eshitadi, haqiqiy holat bilan yuzma-yuz bo‘ladi. O‘z navbatida, bu tibbiyot tizimida ochiqlik va hisobdorlik madaniyatini kuchaytiradi. Yig‘ilishda ta’kidlanganidek, rahbar qabulni joylarda o‘tkazsa, odamlar roziligini oshadi, tizimga haqqoniy baho beriladi.

Uchrashuvda ilgari surilgan har bir tashabbus zamirida bitta maqsad mujassam. Ya’ni boshqaruvi professionallashtirish, klinik sifati oshirish, profilaktika va birlamchi tibbiy xizmat samaradorligini kuchaytirish hamda jamoatchilik oldida ochiq hisobdorlikni ta’minlashdir. Buning uchun har bir rahbar va shifokor o‘z ishini nafaqat hisobot, balki bemorning manfaati uchun bajarishi lozim. Yangi tizimda rahbarlar bemor yo‘lini shaxsan bosib o‘tishi, xizmatlarni samarali va tezkor ko‘rsatishi orqali tizimning ishonchli va insonparvarligini ta’minlashga hissa qo‘shadi.

Murabbiy strategik va texnik ishlardan tashqari jamoani ruhlanitirishda ham muhim o‘rin tutadi. Futbol nafaqat jismoniy, balki ruhiy o‘yin bo‘lgani uchun murabbiy futbolchilarning psixologik holatiga e‘tibor qaratishi kerak. Mohir murabbiy o‘yinchi boshini bosim va stressni yengishiga yordam beradi. Hissiy muvozanatni ta’minlaydi va ularning qimmatli lahzalarida to‘g‘ri qaror qabul qilishiga ko‘maklashadi.

Mansublik hissi

Bu muzaffariyat ortida nafaqat betinim mashg‘ulotlar, pishiq taktika va strategiyalar, balki bir xalqning tarixiy xotirasi, o‘zligini isbotlashga intilishi mujassam. Ushbu intilishlar hayotda aks etishi uchun esa islohotlar tizimli yo‘lga qo‘yib borilayotir.

Prezidentimiz shu yil 11-noyabr kuni Yangi Toshkentda yirik sport inshooti — zamonaviy futbol stadioni qurilishiga tamol toshi qo‘ydi. Bundan oldin — 2-oktabr kuni esa FIFA kengashi yig‘ilishida futbol bo‘yicha 20 yoshgacha bo‘lganlar o‘rtasida 2027-yildagi jahon chempionatini O‘zbekiston va Ozarbayjonda o‘tkazish bo‘yicha qaror chiqdi. Ushbu jahon chempionati doirasidagi o‘yinlar ikki mamlakatdagi 3 tadan stadionda o‘tkaziladi. Jahon chempionatlarining final va yarim final o‘yinlari sig‘imi 50 mingdan ko‘p bo‘lgan stadionda o‘tkazilishi FIFA talablaridan biridir. Shu bois, mamlakatimiz futbolni uchun muhim loyiha — Yangi Toshkent stadioni qurilishiga start berildi.

Yangi Toshkent hududidagi barcha loyiha zamonaviy me‘morchilik va milliy qadriyatlar uyg‘unligida ekologik va “aqli boshqaruv”ga asoslanib barpo etilmoqda. Shu umumiy konsepsiya asosida quriladigan yangi stadion ham tabiat bilan uyg‘un bo‘ladi hamda “yashil energiya” va “qulay muhit” tamoyillariga asoslanadi.

Mazkur stadion FIFAning barcha talablariga mos ravishda barpo etiladi hamda Osiyodagi eng yirik va zamonaviy infratuzilimga ega futbol maydonlaridan biriga aylanadi. U nafaqat 2027-yilgi 20 yoshgacha bo‘lganlar o‘rtasidagi jahon chempionati, balki ayni vaqtda butun o‘zbek futboli va yoshlar sportining kelgusi rivoji uchun ham xizmat qilishiga shubha yo‘q.

Bugun dunyoning nufuzli futbol klublarida to‘p surayotgan 20 nafar hamyurtimizning umumiy transfer qiymati 60 million AQSH dollaridan oshdi. Mamlakatimiz futbolining xalqaro maydondagi obro‘si yanada mustahkamlandi. Abduqodir Husanovning Osiyodagi eng qimmat futbolchi sifatida e’tirof etilgani esa ertaga bitiladigan shonli tarix uchun yorug‘ debocha bo‘lishiga ishonchimiz komil.

Inson shunday: oilasi, millati, jamiyatdagi ijtimoiy o‘rni bilan bog‘liq jihatlarni anglab, ulardan ilhomlanadi. Bir vatandosh muvaffaqiyatining ikkinchisiga ta’viri o‘zini aynan shu kontekstda — bir millatga oidlik hissida namoyon bo‘ladi.

Bir necha oy oldin Abduqodir Husanovning “Manchester Siti” zaxirasida ko‘p qolib ketayotgan, undan ko‘ra nufuzi quyiyoq biror jamoada maydonga muttasil tushgani yaxshi bo‘lishi, uning o‘yin amaliyoti terma jamoaga kerakligi haqida ko‘plab muxlislar, sport jurnalistlari gapirgan edi. Vaqt o‘tdi, mazkur fikrlarning xato ekaniga mana, asta-sekin guvoh bo‘lib bormoqdamiz. Axir o‘ylab ko‘ring, nufuzli klubda hamyurtingiz o‘ynasa, har bir xatti-harakati dunyo telekanallarida tahlil qilinsa, manaman dengen futbolchilar Husanovning yelkasiga qoqib qo‘ysa, o‘zbek, o‘zbek, deb gapirsa, nechog‘liq katta g‘urur beradi odamga! O‘zbek bo‘lsa nima, ular meni tanimaydi-ku, dersiz. Yo‘q, unaga emas! Mansublik degan tuyg‘u bor — bu qaysidir yaxshi jihatga mansublik, ijobiy tashviflanayotgan kim bilandir umumiy jihatigiz borligi. Buni ta’riflab bo‘lmaydi. Aslida, izohlash ham shart emas. Tushunib yetdingiz-ku, to‘g‘rimi?

Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar endi faqat tashkiliy o‘zgarish bilan cheklanmaydi. Bu islohot inson qadriini yuksaltirish, bemorga hurmat bilan yondashish, shifokorning mehnatini munosib qadrlash va rahbarlik madaniyatini yangilashni ham qamrab oladi. Har bir rahbar o‘zini bemor o‘rniga qo‘yib ko‘rsa, har bir shifokor o‘z kasbini fidoyilik bilan bajarsa, har bir bemorga hurmat va e‘tibor bilan yondashsa, mana shunda yangi tizimning haqiqiy samarasi namoyon bo‘ladi.

Har yili Tibbiyot va farmatsevtika xodimlari kuni munosabati bilan davlat tibbiyot muassasalari xodimlari rag‘batlantiriladi. Yangi davolash usulini joriy qilgan shifokorlar 21 million so‘mlik pul mukofotiga ega bo‘ladi. Kamida 15 yillik stajga ega tibbiyot xodimlari sanatoriylarga bepul yo‘llanma oladi, farzandi davlat oliyog‘higa o‘qishga kirgan taqdirda bir yillik kontrakt summasining 30 foizi chegimasidan foydalanadi va har yili faoliyatida alohida natijalarga erishgan 500 xodimga ipoteka krediti boshlang‘ich badalining 25 foizi kompensatsiya qilinadi.

Shuningdek, kamida 3 yil stajga ega xodimlarga, zarurat tug‘ilganda yiliga bir marta bepul yuqori texnologik ixtisoslashgan tibbiy yordam ko‘rsatiladi. Xalqaro tan olingan indekslanuvchi jumalardagi ilmiy maqola nashr etish uchun sarflangan xarajat to‘liq qoplanadi. Bu choralar xodimlarning kasbiy faolligini oshirish, innovatsion davolash usullarini joriy etish, ilmiy tadqiqotlar bilan shug‘ullanish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi.

Prezidentimizning tibbiyot xodimlari bilan o‘tkazgan muloqoti haqiqatan ham tarixiy uchrashuv bo‘ldi. Unda sog‘liqni saqlash sohasining umumiy ahvoli, uni rivojlantirish masalalari, tizimdagi dolzarb muammolar ochiq-oydin aytiladi. Yangi O‘zbekistonda boshqa sohalar qatorida tibbiyot ham rivojlangan davlatga aylantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi.



**USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!**

